



CULTURAL POLICY OF UZBEKISTAN: A FACTOR IN ENSURING POLITICAL STABILITY AND SOCIAL COHESION

O.A. Nazarbekov

Professor at the Y. Rajabiy National Institute of Uzbek Musical Art.

ozodbeknazarbekov544@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: cultural policy, political stability, social cohesion, civil society, political socialization.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article is dedicated to examining the cultural policy of the Republic of Uzbekistan from a political science perspective. It comprehensively analyzes the role of cultural policy in fostering political stability and social cohesion within society. The core principles of the cultural policy being implemented in the country are thoroughly investigated, revealing their impact on civil society institutions and their functions in political socialization. Furthermore, the article explores the mechanisms by which the state achieves social consensus through a “soft power” strategy.

O'ZBEKİSTONNING MADANIY SIYOSATI: SIYOSIY BARQARORLIK VA İJTİMOİY BİRDAMLIKNI TA'MINLASH OMILI

O.A.Nazarbekov

Y.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori

ozodbeknazarbekov544@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: madaniy siyosat, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy birdamlik, fuqarolik jamiyat, siyosiy ijtimoiylashtirish.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining madaniy siyosatshunoslik nuqtai nazaridan o'rghanishga bag'ishlangan. Unda madaniy siyosatning jamiyatda siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishdagi o'rni atroflicha tahlil etiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan madaniy siyosatning asosiy tamoyillari chuqur o'rganilib, ularning fuqarolik jamiyatni institutlariga ta'siri va siyosiy ijtimoiylashuvdagi funksiyalari ochib

beriladi. Maqolada, shuningdek, davlatning “yumshoq kuch” strategiyasi orqali ijtimoiy konsensusuga erishish mexanizmlari ham o’rganiladi.

КУЛЬТУРНАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА: ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ СПЛОЧЕННОСТИ

O.A. Назарбеков

Профессор Узбекского национального института музыкального искусства имени Ю. Раджаби.

ozodbeknazarbekov544@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: культурная политика, политическая стабильность, социальное единство, гражданское общество, политическая социализация.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению культурной политики Республики Узбекистан с политологической точки зрения. В ней подробно анализируется роль культурной политики в формировании политической стабильности и социальной сплоченности в обществе. Глубоко исследуются основные принципы культурной политики, реализуемой в стране, раскрываются их влияние на институты гражданского общества и функции в политической социализации. В статье также изучаются механизмы достижения социального консенсуса государством посредством стратегии «мягкой силы».

Kirish

Madaniyat siyosati davlat siyosatining madaniy hayotni rejalashtirish, loyihalashtirish, amalga oshirish va ta’minlashga qaratilgan muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu atamaning dastlabki ta’riflaridan biri 1967-yilda Monakoda bo‘lib o’tgan YuNESKOning davra suhbatida berilgan. “Madaniyat sohasidagi siyosat – dastlabki mulohazalar” nomli hisobotda madaniyat sohasidagi siyosat deganda, davlatning madaniyat sohasidagi harakatlariga asos bo‘luvchi operatsion tamoyillar, ma’muriy va moliyaviy faoliyat turlari hamda tartib-qoidalar majmuasi tushunish taklif etilgan (Paris: UNESCO, 1969). Shu nuqtai nazardan, madaniyat siyosatini amalga oshirish – bu jamiyatda mavjud bo‘lgan jismoniy va ma’naviy resurslardan optimal tarzda foydalangan holda, muayyan madaniy maqsadlarga erishishga qaratilgan ongli va o‘ylangan harakatlar (yoki harakatsizlik) majmuidir.

Madaniy siyosat har qanday davlatning ichki va tashqi siyosiy strategiyasida muhim o‘rin tutadi. U fuqarolarning madaniy qadriyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy me’yorlarga nisbatan munosabatini shakllantiruvchi, jamiyatda mafkuraviy birlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi

vosita sifatida namoyon bo‘ladi (Smith, 2000, p. 10). Ayniqsa, O‘zbekiston singari ko‘p millatli, boy tarixiy-madaniy merosga ega davlatda madaniy siyosat siyosiy barqarorlikning tayanchlaridan biri sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijtimoiy ongda sog‘lom mafkurani shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga misol tariqasida Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot” konsepsiysi doirasidagi tashabbuslarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu konsepsiyada madaniy siyosat jamiyatni uyg‘otuvchi, harakatlantiruvchi kuch sifatida ta’riflanadi. 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-5449-sonli Prezident qarorida madaniyat va san’at sohalarini davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida takomillashtirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni Prezident raisligida o‘tkazilgan Ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha yig‘ilishda madaniyatning ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yuksalishdagi o‘rni alohida ta’kidlandi.

Ko‘plab davlatlarda, xususan, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi jamiyatlarda yuz berayotgan mafkuraviy, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar milliy madaniy siyosatga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu davlatlar ochiq jamiyat va demokratik boshqaruv sari intilar ekan, madaniyat va madaniy faoliyatga kirish imkoniyatlarining tengligini ta’minlashni o‘z siyosiy strategiyalarining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab kelmoqda. Madaniy siyosatning ijtimoiy-huquqiy sohalardagi islohotlari ayrim dastlabki natijalarni berayotgan bo‘lsa-da, ko‘p hollarda institutsional, mafkuraviy va madaniy to‘sislarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy davlatning umumiy, tizimli modeli hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli, madaniy siyosat masalasi bugungi kunda global miqyosda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda hamda chuqur konceptual tahlil va muloqotni talab qilmoqda.

Ushbu kontekstda, O‘zbekistonda ham madaniy siyosatning yangi modelini ishlab chiqishda qanday tushunchalar, mafkuraviy ustuvorliklar va madaniy qadriyatlar asos sifatida olinishi kerak degan savol dolzarb bo‘lib bormoqda. Madaniy siyosat qanchalik o‘ziga xos milliy modelga ega bo‘lishi yoki global tendensiyalar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanishi masalasi mutaxassislar va tahlilchilar tomonidan jiddiy ko‘rib chiqilishi lozim. Zero, faqat qonun chiqaruvchilar va siyosatchilarning bu boradagi sa’y-harakatlari yetarli emas.

Ushbu maqolada madaniy siyosatning siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashdagi ahamiyati, uning siyosiy ijtimoiylashuvdagagi roli, “yumshoq kuch” (soft power) sifatida qo‘llanishi va fuqarolik jamiyatini bilan o‘zaro aloqasi siyosatshunoslik yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Jamiyat rivoji va davlat mustahkamligini ta’minlashda madaniy siyosatning o‘rni beqiyosdir. “Yumshoq kuch” deganda, davlatning o‘z maqsadlariga majburlash orqali emas, balki

madaniy jozibadorlik, qadriyatlar va g‘oyalar orqali erishish qobiliyati tushuniladi. O‘zbekiston ushbu strategiyani quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaydi:

- Madaniy diplomatiya. Xalqaro maydonda o‘z madaniyatini targ‘ib qilish, mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish.
- Ta’lim sohasidagi hamkorlik. Xorijiy davlatlar bilan ta’lim almashuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish, yoshlarning xalqaro ta’lim standartlariga moslashishiga ko‘maklashish.
- Turizmni rivojlantirish. Mamlakatning tarixiy va madaniy boyliklarini namoyish etish orqali xorijiy sayyoohlarni jalb qilish.

Bu mexanizmlar jamiyatda ijtimoiy konsensusni, ya’ni turli ijtimoiy guruqlar o‘rtasida umumiy qadriyatlar va maqsadlar bo‘yicha kelishuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Madaniy siyosatning samaradorligi jamiyatning ushbu siyosatga nisbatan qanchalik ijobiy munosabatda bo‘lishi va uni qabul qilish darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari

Ushbu maqola siyosatshunoslik fanining zamonaviy nazariy-metodologik asoslariga tayanib yozilgan bo‘lib, unda tizimli yondashuv, funksional tahlil, tarixiy-qiyosiy metod, empirik kuzatuv va kontent-analiz usullaridan keng foydalanildi. Bu metodlar O‘zbekistonning madaniy siyosatini har tomonlama, chuqur va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Tizimli yondashuv yordamida O‘zbekistonning madaniy siyosati ijtimoiy institutlar tizimi doirasida, ya’ni ta’lim muassasalari, OAV, diniy va madaniy markazlar, fuqarolik jamiyatni institutlari, madaniy meros obyektlari va boshqa davlat hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Bu esa madaniy siyosatning siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minalashdagi roli, uning ijtimoiy ong va identitetni shakllantirishdagi funksiyalari, mafkuraviy integratsiya va ijtimoiy mobilizatsiyani rag‘batlantirishdagi ta’sirini kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Natijada, madaniy siyosat jamiyatda ijtimoiy muvozanat va birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida siyosiy tizimga integratsiyalashgan holda amal qilayotgani aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, madaniy siyosat faqatgina madaniyat sohasini qamrab olmay, balki jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatib, umumiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Funksional tahlil orqali madaniy siyosatning siyosiy ijtimoiylashuv, identitet shakllanishi, milliy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyati chuqur ochib berildi. Jumladan, madaniy siyosat jamiyat a’zolarini siyosiy tizimga integratsiyalash, ularni umumiy milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga da’vat etish va ijtimoiy institutsional munosabatlarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘layotgani aniqlangan. Shuningdek, madaniyatning siyosiy kommunikatsiya va ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida

ko‘rib chiqildi. Ya’ni, madaniy siyosat aholining siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, davlat va uning g‘oyalariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida O‘zbekistonning madaniy siyosat tajribasi MDH davlatlari, Markaziy Osiyo va ayrim Yevropa mamlakatlari bilan solishtirildi. Bu esa O‘zbekiston madaniy siyosatining o‘ziga xos jihatlarini, shuningdek, umumiy tendensiyalar va muammolarni aniqlashga yordam berdi.

Kontent-analiz usuli yordamida Madaniyat vazirligi tomonidan so‘nggi yillarda ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, konsepsiylar, Prezident farmonlari va qarorlaridagi madaniyatga oid bandlar tahlil qilindi. Shuningdek, empirik material sifatida O‘zbekistonning turli viloyatlarida madaniy tadbirlar, teatr va konsert faoliyatları, kutubxona va muzeylar tizimidagi o‘zgarishlar amaliy kuzatildi va tahlil qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, 2023; YuNESKO, 1969).

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2017–2024-yillar davomida madaniy sohada olib borilgan tizimli chora-tadbirlar ushbu metodologik yondashuvlar doirasida tahlil qilindi. Masalan, “Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi” faoliyati, “O‘zbekiston – madaniyatlar chorrahasi” konsepsiysi, hududiy madaniyat markazlarini barpo etish, yoshlar va ayollar ishtirokidagi madaniy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali madaniy siyosatning real hayotga tatbiqi kuzatildi. Shuningdek, davlat tomonidan muhim hujjat sifatida tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da madaniyat sohasiga oid bandlar asos qilib olindi.

Bu keng qamrovli metodologiya O‘zbekiston madaniy siyosatining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sirini aniqlashga va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilashga xizmat qildi.

Natijalar.

O‘zbekistonning madaniy siyosati natijalari hamda ular orqali ta’minlangan siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlik kabi indikatorlar amaliy holatda tahlil qilinadi. Metodologik yondashuvlar asosida aniqlanishicha, madaniy siyosat mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, milliy identitetni kuchaytirish jarayonlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi madaniy siyosati – “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida milliy uyg‘onish va madaniy tiklanish yo‘lida olib borilmoqda. Bu siyosat ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni qisqartirish, yoshlar va ijtimoiy guruuhlar orasida umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, madaniyat orqali siyosiy ijtimoiylashuvga erishish kabi maqsadlarga yo‘naltirilgan.

Madaniy Islohotlar va Ularning Amaliy Natijalari

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan madaniy islohotlar va ularni hayotga tatbiq etuvchi muassasalar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan qator loyihalar bunga yorqin misoldir. Jumladan, so‘nggi yillarda quyidagi tashabbuslar milliy madaniy siyosat natijadorligini oshirdi:

- “Madaniyat va ma’rifat karvoni” tashabbusi orqali respublikaning eng chekka hududlariga madaniyat va san’at namunalarini yetkazish yo‘lga qo‘yildi. Bu madaniy xizmatlar tengligiga erishishda muhim omil bo‘ldi.
- “Bir million kitob” loyihasi doirasida yoshlar va o‘quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi adabiyotlar tarqatildi.
- “Yoshlar teatrлari festivali”, “Milliy kuy-qo‘sishq haftaliklari” va hududiy madaniyat markazlarining modernizatsiyasi orqali yosh avlodda madaniy identitetni mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda.
- O‘zbekiston Madaniyat Kodeksi konsepsiysi ishlab chiqilib, madaniyat sohasida qonunchilik asoslari mustahkamlanmoqda. Bu esa uzoq muddatli strategik yondashuvlar va barqarorlikni ta’minlaydi.
- YUNESKO bilan hamkorlikda “nomoddiy madaniy meros” obyektlarini ro‘yxatga olish va saqlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar milliy qadriyatlar negizida xalqaro e’tirofni kuchaytirdi.

Milliy estrada, teatr, kinematografiya, muzeylar va san’at maskanlarining rivojlanishi orqali aholi siyosiy tizimga yaqinlashtirilmoqda. Masalan, “O‘zbekkino” milliy agentligi tomonidan ishlab chiqarilgan yangi tarixiy filmlar yoshlar orasida milliy g‘urur va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirmoqda.

Kontent-analiz asosida o‘rganilgan rasmiy hujjatlar va strategik dasturlar O‘zbekiston madaniy siyosatining quyidagi ijobiy jihatlarini ko‘rsatmoqda:

- Madaniy yondashuvning ijtimoiy integratsiya vositasi sifatida ishlatilishi;
- Mahalliy va hududiy madaniy rivojlanish strategiyalarining uyg‘unligi;
- Milliy qadriyatlar asosida siyosiy ong va barqarorlikni ta’minalashga yo‘naltirilganligi;
- Madaniy merosni asrash va yangicha shakllarda targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilishi.

Shular orqali madaniy siyosat ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi, siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi va fuqarolik faolligini oshiruvchi strategik vosita sifatida shakllanmoqda. Bu natijalar mamlakatning barqaror rivojlanishida madaniy omilning muhimligini yaqqol ko‘rsatadi.

Muhokama

Avval ham ta’kidlab o‘tganimizdek, “Madaniyat siyosati – bu xalq qalbi bilan muloqot qilishning eng samimiy va kuchli vositasidir. Agar davlat o‘z xalqining ma’naviy olamini qadrlasa,

u barqarorlik va taraqqiyot sari qadam tashlaydi” (Nazarbekov, 2023). Ushbu fundamental tamoyil O‘zbekistonning madaniy siyosati negizini tashkil etadi va uning amaliy ifodasini mahalliy hududlarda olib borilayotgan faoliyatda yaqqol ko‘rish mumkin.

Mahalliy Hududlarda Madaniy Xizmatlar Tengligi va Ijtimoiy Integratsiya

Mamlakatimizda madaniy xizmatlarning aholiga teng taqdim etilishini ta’minlash maqsadida bir qator muhim tashabbuslar amalgalashmoqda. Xususan:

“Madaniyat karvonlari” orqali respublikaning eng chekka hududlariga teatr, musiqa, kino va ko‘rgazma namunalari yetkazilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, 2023). Bu tashabbus madaniy ta’lim va estetik zavq olish imkoniyatlarini hududiy tafovutlarsiz barcha fuqarolarga yetkazishga qaratilgan.

Ushbu harakatlar madaniy ishtirokchilikni va jamiyatda ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatlarda madaniy markazlar modernizatsiyasi va ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlar uchun turnik tizimlari joriy etilishi natijasida madaniy tadbirdorda ishtirok etish darajasi sezilarli darajada oshgan. Masalan, muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonida kuzatilayotgan o‘sish buning yorqin dalilidir (Suyunov, Alisher & Patterson, Ian, 2022). Bu holat madaniy siyosatning aholi orasida madaniy faollikni oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Madaniy siyosatning ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlari nafaqat madaniy hayotni jondan tashriradi, balki fuqarolarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish orqali ularning jamiyatga bo‘lgan ishonchini va sadoqatini mustahkamlaydi, bu esa siyosiy barqarorlikning muhim poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “2025-yilgacha Madaniyatni rivojlantirish strategiyasi” doirasida madaniy xizmatlarning hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimoti, yoshlar va madaniy merosni targ‘ib qilish, fuqarolik ongini kuchaytirish yo‘nalishlari belgilangan. Bular umumiyligi siyosatni shakllantirishda asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentning va vazirning fikrlariga ko‘ra, mavjud tashabbuslar jamiyatda siyosiy ijtimoiy lashuv jarayonlarini tezlashtiradi, fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy mas’uliyat va ravon madaniy ongini mustahkamlaydi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

UNCTAD hisobotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida madaniy va ijodiy sanoatlar global iqtisodiyotda 3.1% YaIM va 6.2% ishchi kuchi hissasini tashkil qiladi (UNCTAD, 2024). O‘zbekistonda esa 2022-yilda ushbu sohalarning eksport ulushi 4.74% bo‘lgan va umumiyligi ichki madaniy iqtisodiy qiymati 3026 million AQSH dollarini tashkil etgan (CPRO, 2023). Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, O‘zbekiston madaniyat sohasida xalqaro miqyosda

raqobatbardosh holatda rivojlanmoqda. Bu nafaqat madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, balki iqtisodiy o‘sishga ham hissa qo‘sish imkonini beradi.

O‘zbekiston tajribasi, xususan, madaniyatni shaxsiy va viloyat darajasidan boshlab milliy darajaga o‘tkazish siyosati bilan xalqaro standartlarga mos keladi va boshqa davlatlardan farqli o‘larоq, fuqarolarning madaniy huquqlari va xizmatlардан foydalanishida tenglikni ta’minlayotgan mamlakat sifatida ajralib turadi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi va jamiyatda barcha qatlamlarning madaniy hayotda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Amaldagi rasmiy statistikalar hali yetarli bo‘lmasada, UNICEF va mahalliy so‘rovlar yoshlar o‘rtasida madaniy tadbirlarda ishtirok etish va meros obyektlarini ziyorat qilish kabi faoliyatlarda o‘sish kuzatilganini bildiradi. UNICEF tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida madaniy faoliyatda ishtirok etish darajasi yil sayin ortib bormoqda (UNICEF Uzbekistan, 2022). Shuningdek, 2023-yil holatiga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lgan aholining umumiy ulushi 60% ni tashkil qilmoqda, bu esa madaniyat siyosatining uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik strategiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (CPRO, 2023). Yoshlarning madaniy faoliyatga jalb etilishi ularda milliy o‘zlikni anglash, Vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu natijalar O‘zbekistonning madaniy siyosati nafaqat ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning madaniy siyosati bugungi kunda mahalliy tashabbuslar va milliy strategiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan holda mamlakatda barqarorlik va jamiyat integratsiyasini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Mahalliy tashabbuslar. “Madaniyat karvonlari”, kitob loyihalari va teatr festivallari kabi tashabbuslar fuqarolarning siyosiy va madaniy ijtimoiylashuvi uchun shaxsiy darajada boshlangan amaliy yondashuvlardir. Bu loyihalar orqali madaniyat har bir inson hayotiga kirib boradi va uni faol ishtirok etishga undaydi.

Milliy strategiyalar. Madaniyat strategiyasi va kodeks loyihalari esa bu mahalliy tashabbuslarni umumlashtirgan holda, yaxlit va tizimli siyosiy model sifatida shakllanmoqda. Bu, madaniy siyosatni faqatgina alohida tadbirlardan iborat bo‘lmasdan, balki uzoq muddatli va strategik yo‘nalishga ega bo‘lgan davlat siyosatiga aylantiradi.

Jamiyatda barqarorlik. Madaniy tadbirlar orqali milliy qadriyatlar targ‘ib qilinadi, ijtimoiy birdamlik va fuqarolik faolligi rivojlanadi. Madaniyatni targ‘ib qilish orqali davlat fuqarolar o‘rtasida umumiy qadriyatlar maydonini yaratadi, bu esa turli ijtimoiy guruhlarning birlashuviga va o‘zaro tushunishiga olib keladi.

O‘zbekiston Madaniyat vazirligining amaliy faoliyatlari va xalqaro tajribalar yodda tutilar ekan, bu siyosat siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv mamlakatning kelajakdagi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining madaniy siyosati siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida siyosatshunoslik nuqtai nazaridan chuqur o‘rganildi. Tadqiqotda qo‘yilgan asosiy maqsad – madaniy siyosat orqali fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarini kuchaytirish va “yumshoq kuch” tamoyili asosida ijtimoiy konsensusga erishish mexanizmlarini ochib berish –ga to‘liq erishildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda madaniyat sohasida olib borilayotgan siyosiy va institutsional islohotlar mamlakatda ijtimoiy integratsiya va mafkuraviy birlikni ta’minlashda samarali ishlamoqda. Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar fuqarolarning siyosiy faolligi, madaniy ong va identitetining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda umumiylar qadriyatlar tizimini mustahkamlab, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hamjihatlikni oshiradi.

Shuningdek, xalqaro tajriba bilan taqqoslovchi tahlil, fuqarolar fikriga oid ijtimoiy so‘rov natijalari hamda raqamli ko‘rsatkichlar asosida olib borilgan tadqiqot gipotezani tasdiqladi: madaniy siyosat siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashning muhim strategik vositasi hisoblanadi.

Bu natijalar kelajakdagi siyosiy rejalshtirish va davlat-madaniyat munosabatlari tizimini yanada takomillashtirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning madaniy siyosati, shubhasiz, milliy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, S. M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.
2. Президент Республики Узбекистан. Постановление №ПК-5449 от 26.12.2022 г. // <https://lex.uz/docs/6025749>
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev. Ma’naviyat va ma’rifat sohasida yangi yo‘nalishlar, 22.12.2023 // <https://president.uz/oz/lists/view/6941>
4. Nazarbekov, O. (2023). Madaniyat siyosatining yangi yo‘nalishlari to‘g‘risida intervyu. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi rasmiy sayti. Retrieved from <https://madaniyat.uz/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2023). O‘zbekiston madaniyat siyosati konsepsiysi. Toshkent: Madaniyat vazirligi nashriyoti.

6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2023). Madaniyatni rivojlantirish strategiyasi 2025-yilgacha. Toshkent: Madaniyat vazirligi nashriyoti.
7. Smith, J. (2000). The role of cultural policy in national identity. *Journal of Political Culture*, 12(3), 9–21.
8. Suyunov, Alisher & Patterson, Ian. (2022). Attendance Rates of Museums in Uzbekistan: Strategies to Attract More Visitors Post COVID Pandemic. 2. 41-49
9. UNESCO. (1969). Cultural policy: Preliminary considerations. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org>
10. UNESCO. (2022). Culture and public policy: Reshaping policies for creativity. Paris: UNESCO Publishing. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org>
11. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). Creative economy outlook 2024. Geneva: UNCTAD. Retrieved from https://unctad.org/system/files/official-document/ditctsce2024d2_en.pdf
12. UNICEF Uzbekistan. (2022). Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects. Tashkent: UNICEF. Retrieved from <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3541/file/YouthofUzbekistan-ChallengesandProspects.pdf>
13. Center for Policy Research and Outreach (CPRO). (2023). Creative economy landscape in Uzbekistan. Westminster International University in Tashkent. Retrieved from <https://cpro.wiut.uz/images/documents/0.%20Creative%20Economy%20Uzbekistan%20CPRO%20template.edited.pdf>
14. Cultural policy: a preliminary study. (Paris: UNESCO, 1969). P. 5, 7.